

## YASSAVIYA TARIQATIDA INSON TARAQQIYOTLARI

*Ilmiy raxbar: Samatov. X  
(Muhammad Normurodov)*

*TATU Samarqand Filiali (Kompyuter injiniringi)  
KI23-04 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va uning insommi tarbiyalashga qaratilgan, to'g'ri yo'lni toppish, komillikka erishish uchun nimalar qilish kerakligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, tariqat, tarbiya, tasavvuf, turkiy, sharq komillik, xalq, ilm, zikr, islom.

Yassaviy, Xoja Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi [Sayram](#) shahri, taxminan 11-asrning 2-yarmi — 1166) — tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, [turkiy xalqlarning](#) buyuk shoiri. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Yassaviy [chig'atoy tilida](#) ijod qilgan. Ijodi ayo do'stlar nodon birla ulfat bo'lib bag'rim kuyib jondan to'yib o'ldim ma'no to'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ar qonlar yutib g'am zahriga to'ydim ma'no.

Yassaviy tug'ilgach, ko'p o'tmay onasi — Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko'chib borgach, ustozi [Arslon bobo](#) bilan uchrashadi va undan tahsil oladi („Yeti yoshda Arslon bobom izlab topdim...“). Yassaviy [Yassida](#) botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtirgan.

O'sha zamonlarda ilm ma'rifatning Movaraunnahirdagi markazlaridan bo'lgan [Buxoroda Turkistonning](#) turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig'ilishgan. Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sofiysi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi. Buxoroda u [arab tili](#) bilan bir qatorda [fors tilini](#) ham chuqur o'rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. [Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy](#), Abdulloh Barqiy, [Xoja Hasan Andoqiylar](#) bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, [Yusuf Hamadoniy](#) muridlari qatoridan o'rin oladi.

[Alisher Navoiy](#) Yassaviy to'g'risida „Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g'oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish“, — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy [turkiy xalqlarni islomga](#) yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g'oyalarini omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan ham

foydalangan. [Abdurauf Fitratning](#) ta'kidlashicha, Yasaviyning „adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she‘rlar bilan barobar“. U yozgan asari Nafaqat turkiy Xalqlarga balki butun Dunyoga Nasihat bo‘ladigan asar yozgan.

**Yassaviylik** — tasavvufdagi tariqatlardan biri. Asoschisi Ahmad Yassaviy. 12-asrda O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan. Ya. ta’limotiga ko‘ra, komil murshid (shayx)ning zimmasidagi birinchi vazifa oliy insoniy sifatlarni o‘zida mujassam etish, shariat ilmini mukammal egallab, so‘ng muridlarni ortidan ergashtirishga erishishdir. Ya.ka ko‘ra, murid quyidagi talablarga rioya qilishi zarur: biror kishini o‘z murshididan ustun qo‘ymasligi va unga mutlaq ehtirom bilan bog‘lanishi; zikr va idrok sohibi bo‘lishi, ustozining ramzi va ishoratlarini oson ilg‘ashi; so‘zda to‘g‘ri, va’ daga vafodor bo‘lishi; ustozining amr, taklif, va’z va nasihatlarini nazardan soqit etmay kamolga intilishi. Haziniyning "Javohir ulabror" asarida Ya.ning asoslari quyidagicha qayd qilingan: tavhidga asoslangan tasavvufiy tushunchalar; shariat va payg‘ambarning sunnatiga mutlaq bog‘liqlik; shariatga tayangan tariqat; riyozat va mushohada; xilvat va zikr. Ya.da ilm-ma’rifat egallash, himmat va saxovat tuyg‘ularini kamol toptirish, nafsga qarshi kurashda sobit bo‘lish, halol mehnat bilan rizq topishga alohida ahamiyat berilgan. Ya. zikri jahriyga asoslanilgan. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, insonning asl vatani mutlaq borliq. Inson shu borliqda paydo bo‘lgan, o‘sha muqaddas borliqqa qaytmog‘i muqarrar. Shu bois haqiqiy sufiy vatan va vatanparvarlik borasida tor tushunchaga berilmasligi kerak. Ya. ko‘plab olim, shoir va davlat arboblari qalbini zabt aylagan. U faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Ozarbayjon, Turkiyada ham keng tarqalgan.

**Shakllanish bosqichi:** Bu tariqatning shakllanishi [Abbosiyalar xalifaligidan](#) mustaqil bo‘lgan alohida siyosiy hokimiyatlarning shakllanishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi davr - [Turkistonda](#) so‘fiylik dunyoqarashi va tariqatlarining Yassaviy hayotidan [Oltin O‘rda davlati](#) tashkil topishigacha bo‘lgan davr. Yassaviy tariqatining shakllanishining dastlabki shartlari haqida turlicha qarashlar mavjud. Yassaviy tariqatining asosi “Mubayyadun ” va “Karmat” ta’limotlaridan boshlanadi, degan xulosa [Bag‘dod](#) va [Xurosonning](#) tasavvufning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaganligidan kelib chiqadi. Ya’ni Turkiston o‘lkasidagi dualistik manixiylik ta’limoti va an’anaviy tariqatlar asosida shakllangan mubayyadlar ta’limotining tabiiy davomi sifatida qaraladi. Turk tarixchisi Z. [Validiy To‘g‘on Yassaviy ta’limoti manixiylik](#) va shofe’iylik asosida shakllanganligini, u qoraxoniylar sulolasidan chiqqanligini aytadi.

**Yassaviy ta’limoti nazariydir** Nazariy jihatdan Yassaviy ta’limoti qalb, xohish va ilhom yo‘li orqali ma’rifat va botinlikka qaratilgan. Ya’ni, uning ta’limoti ma’naviy va nafsga to‘la bo‘lsa, karmatiylar butunlay siyosiy bo‘lsa, tabiatan aqida (aqida) bo‘lsa, Yassaviy tariqati butunlay ma’naviyatdir. Yassaviy tariqatini Halloj al-Mansur



yoʻlining davomi deb taʼkidlaganlar qatorida fransuz sharqshunos olimi Msignon Lui ham bor. Uning “Alloj al-mansur” asarida Hallojning turkiy islomdagi oʻrni keng muhokama qilinadi. Yassaviy Hallojni islom avliyolaridan biri deb tan olgan. Isbatiyya soʻfiylik mazhabi vakili Mansur al- Halloj soʻfiylik dunyoqarashi toifalarining (“fana fi Alloh” (Allohga ergashish), “muhabbatulloh” (Allohga ishq), “tark-i dunyo” (“tark-i dunyo”) (“Allohga ergashish”), “muhabbatulloh” (“Muhabbatulloh”) (Allohga ishq), “tark-i dunyo” (“Allohga ergashish”) kabi soʻfiylik dunyoqarashining asosiy belgilarini ajratib koʻrsatdi. Allohdan yuz oʻgirish), “hikmat” (hikmat), “sezgi (ochiq)”, “murakaba” (oʻz-oʻzini tanqid qilish), “tasfiyya-i kalb” (qalbni poklash). Ayrim istisnolar boʻlmasa, Yassaviy taʼlimotining mazmuni Halloj taʼlimotiga mos keladi. Biroq, bu taʼlimotning nazariy asosiga koʻra, malamiya sektasining xususiyatlari isbatiyadan ustun turadi. Shunga qaramay, Yassaviy donishmandlarida Mansur nomi va yoʻli koʻp tarannum etilgan. Malamiya taʼlimoti (asoschisi Boyazid Bistamiy) odatda anʼanaviy turkiy dunyoqarashga asoslanadi. Inson ruhiyati holatini oʻrganishga qaratilgan malamit dunyoqarashi sezgi va sezgi orqali xudoga boʻlgan “orzu”, “ragʻbat” va “istigʻroq” holati bilan bogʻlangan. Bu [Xudoga](#) itoat qilishning yoʻlidir.

Malamiyada haqiqatga xizmat qilish xalqqa xizmat qilish ekan, insonni sevish asosiy talabdir. Yassaviy taʼlimotining zamirida Malamiyadagi soʻfiylar ruhiyati yotadi. Asosiysi, insonning jinsiy, hayvoniy tabiatini yoʻq qilish; sakr-ochiq (kuchli ishq) va wird (zikr) arkshi fana (ozodlik maqomi) maqomiga erishish; nafas olmoq, zavq olmoq; satr - insonning ibodat va amallarini yashirish; Uajd – insonning “men”ni yoʻqotishi, Haqni topishi va Allohga yuzlanishi kabi ruhiy holat va maqomdir. Malamiya tabiatining barcha xususiyatlarini “Divoni hikmat” va “Miratul kulub”da koʻrish mumkin. Bu yerda malamizm soʻfiylik falsafiy taʼlimot boʻlib, uni keyingi asrlarda sekta sifatida paydo boʻlgan malamizm bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Haziniy oʻzining “Javohir ul Abror min Amuaj-il Bihor” (“Dengiz toʻlqinlarida ezgulik gavharlari” yoki “Sirlari”) asarida Yassaviy tariqatining asosiy xususiyatlari, komillik yoʻlida shogirdlarga qoʻyiladigan talablar haqida koʻp yozgan. Haq yoʻlidagi azizlarning”).

Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlarining maʼnaviy hayoti tarixidagi eng murakkab, oʻzaro ziddiyatlarga toʻlib-toshgan davr sifatida tasavvuf vujudga kelgan va omma orasida tarqalgan vaqtni olishimiz mumkin. Tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklaridan va noz-u neʼmatlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak uchun pok, halol, oʻz mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik xarakterli xususiyatlardan hisoblangan tasavvufga kirgan kishi soʻfiy deb atalgan.

Tasavvufdagi bagʻrikenglik tamoyili asosida shakllangan halollik, mehnatsevarlik, adolat va rostgoʻylik kabi insoniy fazilatlar turli millat va din vakillarining bir hududda tinch-totuv va hamkorlikda yashashlari uchun qulay muhit yaratgan.

Markaziy Osiyoda tasavvufiy ta'limotlarning paydo bo'lishi Yusuf Hamadoniy (1048–1140) nomi bilan bog'liqdir. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Ya'qub Charxiy kabi allomalar tomonidan boyitilgan tasavvuf ta'limoti xalqni yagona maqsad atrofida birlashtirib, jamiyatning turli tabaqalari o'rtasida do'stlik rishtalari kuchayishiga, komil inson tarbiyalashga xizmat qilgan.

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Ahmad Yassaviyning hayoti haqida ma'lumotlar yetarli emas. U Yassi shahrida, Turkistonda ruhoniy oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur. Ahmadning yoshligi og'ir kechgan. Otasi juda erta vafot etgani sababli Ahmad Yassaviy Arslonbobday yirik mutasavvuf olim qo'lida tarbiyalangan. So'ng u Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsil oladi. Ahmad Yassaviyning o'zi "Ustoz Yusuf Hamadoniyning huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini" aytadi. Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar yuqori darajada egallaydiki, xalq orasida "Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad" degan naql paydo bo'ladi. U yerda tasavvufdan ta'lim olib, so'ng o'z yurti Turkistonga qaytadi, o'z ta'limotini targ'ib etib, shogird, muridlar tayyorlay boshlaydi. Ahmad Yassaviy 1166-yilda vafot etgan. Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga (Payg'ambar (s.a.v.) yoshiga) yetgach, yer ostida hujra yasatib, "chilla"ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir rivoyatga ko'ra, u 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan. Vafot etgan vaqti ko'pgina qo'lyozma manbalarda hijriy 562 (1166–1167)-yil deb yozilgan. Adibning shuhrati vafotidan keyin ham pasaymagan. Amir Temur unga alohida e'tiqod bilan qaragani ma'lum. U 1395–1397-yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning eski qabri o'rnida yangidan muhtasham maqbara qurdirgan. Bu maqbara hozir ham bor. Shuningdek, janglarga borishdan oldin Yassaviy qabrini ziyorat qilgani haqida ma'lumotlar ham mavjud. "Hikmat"lar Ahmad Yassaviy merosini jamlagan asardir. Ularda 240 ga yaqin she'r bor. Asar xalq orasida "Devoni hikmat" nomi bilan mashhur bo'lgan. Hikmatlarga "Qul Xoja Ahmad", "Xoja Ahmad Yassaviy", "Ahmad ibn Ibrohim", "Sulton Xoja Ahmad Yassaviy", "Yassaviy miskin Ahmad", "Miskin Yassaviy", "Xoja Ahmad", "Ahmad", "Ahmadiy", "Qul Ahmad", "Miskin Ahmad" kabi taxalluslar qo'yilgan.

Alisher Navoiy Yassaviy to'g'risida "Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoliy va nomahsur ermish. Murid va as'hob g'oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish", — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf

g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she‘riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta‘kidlashicha, Yassaviyning “adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she‘rlar bilan barobar”.

“Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, ma‘rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta‘sirli ohanglarda yoritib berilgan. “Devoni hikmat”dagi barcha she‘rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma‘lum o‘zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o‘nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g‘oyaviy, axloqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va mafkuraviy yo‘nalishni o‘zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs yuritilgan o‘nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning “Javohir ul-abror min amvojil bihor” asari ham to‘la tasdiqlaydi.

### ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yassaviylik>
2. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ahmad-yassaviy/>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/turkiy-adabiyot-bostoni-xoja-ahmad-yassaviy.html>
4. <https://abiturtest.uz/mavzular/ahmad-yassaviy-va-uning-hikmatlar-to%CA%BBplami/>
5. <https://uzhurriyat.uz/2015/04/29/movarounnahr-tasavvufi-va-tariqatchilik>
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
8. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.